O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(I-QISM)

(2024 YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(I-QISM)

(2024 yil 25-noyabr)

SAMARQAND – 2024

UO'K: 330.35(575.1)
O' 17
KBK: 65.9(O'zb)

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024 yil 25-noyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2024. – 262 bet.

Nashr uchun mas'ullar:
Q.J.Mirzayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.X.Aslanova- iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor.
E.Shavqiyev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.
S.A.Isxakova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
G'.S.Mustafoyev – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
S.B.Boboqulov – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b.
Sahifalovchi: F.F.Ulugmurodov

An'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy sohalarda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlari, aholi bandligi, farovonligi, yashash sifati va darajasini yuksaltirishdagi rolini oshirish masalalari, xizmat industriyasi bilan integratsiyalashuv jarayonlaridagi tendentsiyalari va istiqbolli yo'nalishlari, sohani rivojlantirish muammo va yechimlari, boshqaruv usullari va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish yo'llari, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq soha samaradorligini bank – moliyaviy tizimi orqali oshirish mexanizmlari, korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistik hisob usullarini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari, servis tizimi xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish yo'llari, sohani shakllantirishda raqamlashtirish muammolari va ularning yechimlariga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o'rin olgan.

В материалах традиционно международной научно-практической конференции вошли статьи и тезисы, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на научно-теоретические и методологические подходы к обеспечению устойчивых темпов роста цифровой экономики в экономических сферах, вопросы повышения роли цифровой экономики в обеспечении занятости, благосостояния,

повышения качества и уровня жизни населения, тенденции и перспективные направления в процессах интеграции с индустрией услуг, проблемы и решения отраслевых задач, методы управления и перспективы развития цифровой экономики в социально-экономическом развитии. улучшение пути, механизмы повышения эффективности сферы, связанной с цифровой экономикой через банковско – финансовую систему, инновационные подходы к совершенствованию методов бухгалтерского учета, экономического анализа, аудита и статистического учета на предприятиях, пути повышения качества и эффективности услуг сервисной системы, проблемы цифровизации в становлении промышленности и пути их решения.

The materials of the the traditionally international scientific and practical conference included articles and abstracts rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at scientific, theoretical and methodological approaches to ensuring sustainable growth rates of the digital economy in economic spheres, issues of increasing the role of the digital economy in ensuring employment, welfare, improving the quality and standard of living of the population, trends and promising areas in the processes of integration with the service industry, problems and solutions to industry problems, management methods and prospects for the development of the digital economy in socio-economic development. improvement of the path, mechanisms for increasing the efficiency of the sphere related to the digital economy through the banking and financial system, innovative approaches to improving accounting methods, economic analysis, audit and statistical accounting at enterprises, ways to improve the quality and efficiency of services of the service system, problems of digitalization in the formation of industry and ways to solve them.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma’suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to’g’ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-720-95-6

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

современные методы и инструменты диагностики рисков и угроз. Сборник научных трудов по итогам Международной научно-практической конференции. Москва, 2023. С. 682-689.

7. Механизм повышения качества образования с использованием онлайн-ресурсов в вузах. Мамадалиева К.А., Маткеримова А.М.Д. В сборнике: Устойчивое развитие: анализ тенденций российской и мировой экономики. Сборник материалов Международной научно-практической конференции. Махачкала, 2023. С. 174-179.

8. Факторы и принципы управления информационно-образовательными комплексами в вузах. Мамадалиева К.А., Ганыбаева У.Г.Актуальные вопросы современной экономики. 2024. № 3. С. 59-62.

9. Пути развития и улучшения транспортной инфраструктуры туризма *Калбаева. Р.Д.*.Актуальные вопросы современной экономики. 2021. № 5. С. 450-455.

NAVOIY VILOYATIDA TURIZMNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI

Turayev Abduvoxid Kuldashevich
SamISI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada Navoiy viloyatida turizmni samarali rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan hamda viloyatda sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Navoiy, xalqaro turizm, ichki turizm, turistik resurslar, turistik oqim, SWOT tahlil, infratuzilma.

АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В статье анализируются возможности эффективного развития туризма в Навоийской области, а также предложения и рекомендации по дальнейшему развитию отрасли в регионе.

Ключевые слова. Навои, международный туризм, внутренний туризм, туристские ресурсы, турпоток, SWOT-анализ, инфраструктура.

ANALYSIS OF POSSIBILITIES FOR EFFECTIVE TOURISM DEVELOPMENT IN NAVOY REGION

Abstract. The article analyzes the possibilities of effective development of tourism in the Navoi region, as well as proposals and recommendations for the further development of the industry in the region.

Key words. Navoi, international tourism, domestic tourism, tourism resources, tourist flow, SWOT analysis, infrastructure.

Turizm tarmog‘i xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi eng muhim tarmoqlardan biri bo‘lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, tibbiy pandemiya, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramasdan) iqtisodiy samaradorlik bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinni egallagan bo‘lib, neft va avtomobilsozlik sanoati singari muhim tarmoqlarni ortda qoldirdi.

Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ‘ib etishda ham samarali omil bo‘lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi tarmoqlardan bo‘lib hisoblanadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo‘lib, bir ma’noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko‘p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko‘ra har xil bo‘lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog‘liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo‘lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo‘nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o‘sib bormoqda, bu turizmning insonlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri kuchayishi bilan bog‘liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo‘qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko‘proq ta’sir qilmoqda bularning barchasi turizmning o‘ziga xos belgisidir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko‘proq anglab yetmoqda.

Mamlakatimizda ham turizm tarmog‘ini yanada rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda hamda qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022 yil 30 apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023 yil 26 apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda turizmga bo‘lgan e’tibor tufayli COVID pandemiyasidan so‘ng, 2020 yildan asta-sekin rivojlanib bordi hamda 2023 yilga kelib, 2019 yil natijasiga qariyb tenglashdi (1-rasm).



1-rasm. 2023-yilda kiruvchi, chiquvchi va ichki turizmning asosiy ko‘rsatkichlari (ming kishi).

Navoiy viloyatida turizmni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini baholashning asosiy usullaridan biri sifatida SWOT tahlilidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Strategik rejalashtirish usuli bo‘lgan SWOT tahlili (kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar, tahdidlar) hudud turizm salohiyatining raqobatdoshligini aniqlashda qo‘llaniladi. SWOT tahlili turistik hududlarni baholashda keng qo‘llaniladi. SWOT – bu Strengths (Kuchli tomonlar), Weaknesses (Kuchsiz tomonlar), Opportunities (Imkoniyatlar) va Threats (Tahdidlar) so‘zlarining bosh harflaridan olingan qisqartma bo‘lib, ushbu tahlil orqali tashkilotlar yoki loyihalarning ichki va tashqi muhitini tahlil qilish imkonini beradi.

Navoiy viloyatining turistik imkoniyatlari bo‘yicha SWOT tahlilini amalga oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval

Turistik destinatsiyalarning SWOT tahlili

Kuchli tomonlari (Strengths)	Kuchsiz tomonlari (Weaknesses)
Tabiiy resurslar: viloyatning tabiiy manzaralari, tog‘lar, cho‘llar va suv havzalari turizmni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. **Tarixiy va madaniy meros:** Navoiy viloyati ko‘plab tarixiy obidalar, masjidlar va madaniy yodgorliklarga ega, bu esa turistlar uchun qiziqarli. **Infratuzilma:** Turizm uchun zarur bo‘lgan	**Infratuzilmaning yetishmasligi:** Ba’zi joylarda turistik infratuzilma (mehmonxonalar, restoranlar) yetarli darajada rivojlanmagan. **Ekologik muammolar:** Atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq muammolar, chiqindilarning ko‘payishi. **Madaniy to‘qnashuvlar:** Mahalliy aholi va turistlar o‘rtasidagi madaniy to‘qnashuvlar.

transport tizimi, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa turistik xizmatlarning mavjudligi. **Transport infratuzilmasi:** Navoiy viloyati strategik joylashuvi bilan O‘zbekistonning boshqa viloyatlari va qo‘shni mamlakatlarga qulay transport yo‘llariga ega. **Texnologiya va innovatsiyalar:** Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlar orqali turistlarga qulayliklar yaratish. **Sanoat va qishloq xo‘jaligi:** Mahalliy mahsulotlar va an’anaviy hunarmandchilik turistlarga qiziqarli tajribalar taqdim etishi mumkin.	**Siyosiy va iqtisodiy barqarorsizlik:** Siyosiy notinchliklar, iqtisodiy muammolar. **Marketing va reklama:** Navoiy viloyatining turistik imkoniyatlari haqida ma’lumot yetarlicha tarqatilmaydi, bu esa turistlar oqimini kamaytirishi mumkin. **Moliya va investitsiya yetishmasligi:** Turizm sohasiga yetarli investitsiyalar jalb qilinmagan, bu esa rivojlanishni sekinlashtiradi. **Xizmat ko‘rsatish sifati:** Ba’zi joylarda xizmat ko‘rsatish darajasi past bo‘lishi mumkin, bu esa turistlarning qoniqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
Imkoniyatlari (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
Yangi bozorlarga kirish: Xalqaro turizm bozorida yangi segmentlarni jalb yetish. **Ekoturizmni rivojlantirish:** Tabiiy go‘zalliklarni saqlab qolish va ekoturizmni rivojlantirish orqali yangi turistlarni jalb qilish. **Barqaror turizm:** Ekologik barqarorlik va mahalliy jamoalarni rivojlantirishga qaratilgan turizm modellari. **Texnologik rivojlanish:** Onlayn bronlash tizimlari, virtual va augmented realiti ilovalari kabi texnologiyalardan foydalanish. **Xalqaro tadbirlar o‘tkazish:** Madaniy festivallar, sport musobaqalari va boshqa tadbirlarni o‘tkazish orqali turistlarni jalb qilish imkoniyatlari. **Mahalliy an’analarni targ‘ib qilish:** Mahalliy madaniyat va an'analarni tanitish orqali turistlar uchun qiziqarli tajribalar yaratish. **Onlayn marketing:** Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda faoliyat olib borish orqali turistlarni jalb qilish.	**Tabiiy ofatlar:** Tabiiy ofatlar (masalan, suv toshqinlari yoki qurg‘oqchilik) turizmni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. **Raqobat:** Boshqa viloyatlar va mamlakatlardagi turizm sohasidagi raqqobat kuchaymoqda, bu esa Navoiy viloyatini qiyinlashtirishi mumkin. **Iqtisodiy o‘zgarishlar:** Global iqtisodiy inqiroz yoki pandemiyalar turizm sohasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. **Ijtimoiy va siyosiy vaziyat:** Ijtimoiy beqarorlik yoki siyosiy muammolar turistlar oqimini kamaytirishi mumkin.

SWOT tahlili orqali viloyat turistik salohiyatini oshirish, raqobatdoshlikni kuchaytirish, zaif tomonlarni yaxshilash, imkoniyatlardan samarali foydalanish va tahdidlarga qarshi tegishli choralar ko‘rish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

SWOT tahlili natijasidan kelib chiqib Navoiy viloyatini turistik jihatdan rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish muhimdir:

Infratuzilmani rivojlantirish: mehmonxonalar, restoranlar va boshqa xizmat ko‘rsatish obyektlarini ko‘paytirish va sifatini oshirish;

Marketing strategiyasini kuchaytirish: viloyatning turistik imkoniyatlarini onlayn va oflayn platformalarda faol ravishda reklama qilish.

Investitsiyalarni jalb qilish: turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash.

Ekoturizmga e’tibor berish: tabiatni asrash va ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish.

Bu tavsiyalar Navoiy viloyatining turizm sohasini rivojlantirishga yordam beradi va sayyohlarni jalb qilishda raqobatbardoshligini oshiradi.

Tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda Navoiy viloyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, birgina Navoiy viloyatida faoliyat yuritgan turoperatorlar soni 2015 yildagi 3 tadan 2023 yilga kelib, 23 nafarga yetganini ko ‘rish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Navoiy viloyati turizmning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
1	Ichki turistlar soni, ming kishi	-	-	-	-	-	183,2	185,8
2	Mehmonxonalar soni	11	15	18	20	23	27	26
3	Mehmonxonalardagi joylar soni	569	903	957	950	1010	1301	1161
4	Turoperatorlar	3	4	6	5	2	3	4
№	**Ko‘rsatkichlar**	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**
5	Ichki turistlar soni, ming kishi	192,1	199,3	202,7	116,4	82,8	161,9	133,5
6	Mehmonxonalar soni	30	29	35	34	37	44	32
7	Mehmonxonalardagi joylar soni	1312	1259	1639	1726	1786	2502	1646
8	Turoperatorlar	4	6	7	7	10	12	23

Keltirilgan 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Navoiy viloyatidagi asosiy turistik ko‘rsatkichlar – ichki turistlar soni 2015 yilga solishtirganda 2023 yilda 27 %ga kamaygan, mehmonxonalar soni 19 %ga ortgan, mehmonxonalardagi joylar soni 27 %ga oshgan, turoperatorlar soni esa 667 %ga oshgan.

Umuman olganda, Navoiy viloyati turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Tarixiy va madaniy meros, tabiiy go‘zalliklar, transport infratuzilmasi, mahalliy aholi ishtiroki va sifatli xizmat ko‘rsatish kabi omillar viloyatning turistik salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Turizm sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar sayyohlarni jalb qilish, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash va madaniy merosni saqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijasida tarixiy va madaniy obidalarni rivojlantirish, ekoturizm va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, transport va logistikani rivojlantirish, investitsiyalarni faol jalb qilish, marketing va reklama strategiyalarini rivojlantirish, mahalliy aholini ichki turizmga jalb qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish singari tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu tavsiyalar Navoiy viloyatida turizmni samarali rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Ularning amalga oshirilishi viloyatning turistik salohiyatini oshiradi va iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT VA AGROSANOAT INTEGRATSIYASI TAMOYILLARI

Artikova Shohida Ilyasovna,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.b., PhD
Qurbonov Tolmasjon Namoz o‘g‘li,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi
tolmasjonqurbonov06@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda muhim tarmoqlardan biri bo‘lgan yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi qanchalik muhim rol o‘ynashi va qishloq xo‘jaligida yaratilgan mahsulotlarni miqdor va sifat jihatlarini yaxshilash nazariyalari yoritib berilgan. O‘zbekistonning faol iqtisodiy siyosat olib borish orqali iqtisodiyotini “yashil”ga aylantirish borasidagi sa’y-harakatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Agrosanoat, qishloq xo‘jaligi, agrosanoat texnologiyasi, yer resursi, suv resurslari, «aqlli» qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, smart texnologiyalar.

ПРИНЦИПЫ ИНТЕГРАЦИИ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ И АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В этой статье рассматривается важная роль сельского хозяйства в развитии зелёной экономики, которая является одним из ключевых секторов экономики нашей страны, а также теории улучшения количества и качества продукции, производимой в сельском хозяйстве. Проанализированы усилия Узбекистана по превращению своей экономики в "зелёную" через проведение активной экономической политики.

Ключевые слова. Агропромышленность, сельское хозяйство, агротехника, земельные ресурсы, водные ресурсы, «умное» сельское хозяйство, продовольственная безопасность, смарт-технологии.

PRINCIPLES OF INTEGRATION OF GREEN ECONOMY AND AGRO-INDUSTRY IN UZBEKISTAN

Abstract. This article discusses the important role of agriculture in the development of the green economy, which is one of the key sectors of our country's economy, as well as the theories for improving the quantity and quality of agricultural products. The efforts of Uzbekistan to transform its economy into